

# Pandemiyani jilovlashga qaratilgan sa'y-harakatlar tanqidiy tahlil qilindi



Ayni daqiqalarda Prezident Shavkat Mirziyoyev navbatdagi videoselektor yig'ilishi o'tkazmoqda. Tadbirda bugun O'zbekiston bo'ylab koronavirus pandemiyasini jilovlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar chuqur tahlil qilinmoqda.

Jumladan, oxirgi paytda dunyoda COVID-19 infeksiyasining tarqalishi keskin tezlashib, jami kasallar soni 19 millionga yaqinlashgani, qurbonlar ham ko'paygani afsus bilan ta'kidlandi. Vaziyat g'oyat jiddiyligini 31-iyulda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti pandemiya bilan bog'liq xalqaro favqulodda holatni yana 3 oyga uzaytirgani ham ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimizda oxirgi bir haftada 5 mingdan ortiq yangi kasal aniqlanib, jami virus yuqtirganlar soni 27 mingtaga yaqinlashdi. Eng yomoni, koronavirusga qo'shimcha tarzda, asorati og'irroq bo'lgan pnevmoniya holatlari ham ko'paymoqda.

Ushbu holatni inobatga olib, yurtimizda qo'shimcha choralar ko'rildi. Jumladan, oxirgi 20 kunda koronavirusni davolash o'rinlari 3,5 barobarga ko'paytirildi va qariyb 65 mingtaga yetkazildi.

Joylarga qo'shimcha ravishda qariyb 800 ta tez tibbiy yordam mashinalari yetkazib berildi.

Qo'shimcha 4 mingta nafas berish uskunalari (O'SV, portativ sun'iy nafas berish apparati, kislorod konsentratori) olib kelinib, ularning soni 6,5 mingtaga yetdi.

- Aholi o'rtasida virus tarqalishining oldini olish va bemorlarni davolash bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlarni yana-da kuchaytirgan holda davom ettirishimiz zarur, - dedi davlatimiz rahbari.

Xususan, Sog'liqni saqlash vazirligi, hokimlar va sektorlar rahbarlari koronavirus va pnevmoniyani davolash bo'yicha har tomonlama tayyor bo'lishi, har bir bemorga kerakli tibbiy yordam ko'rsatilishi, ularning holatidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizilishi va davolanishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi qayd etildi.

Joylardagi birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi ishini yana-da jonlantirish kerakligi ta'kidlandi.

Misol uchun, poytaxtimizda "oilaviy poliklinika - mobil brigadalar - maxsus poliklinikalar - "103" tez yordam xizmati" tizimining uzviy ishlashini ta'minlash hisobiga bir haftada sog'ayganlar ulushini 45 foizdan 58 foizga oshirishga erishildi.

Shu munosabat bilan, Bosh vazir o'rinbosari Behzod Musayevga hokimliklar va sektor rahbarlari bilan birga bir hafta muddatda "Toshkent shahri tajribasi" negizida hududlarda simptomsiz bemorlarni o'z uyida mobil tibbiy guruhlar yordamida ularning ko'mak va tavsiyalari asosida davolash tizimining joriy etilishini yakunlash vazifasi yuklatildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, hududlarda COVID-19ga chalinganlarni qabul qilish va saralash bo'yicha markazlarni tashkil etgan holda, kichik shifoxonalarni o'z profiliga muvofiq boshqa turdagi va surunkali kasallarni davolashga qaytarish lozimligini aytdi.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hududlarga Toshkentdan birlashtirilgan ixtisoslashtirilgan markazlar va oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishini yana-da samarali tashkil etishlariga har tomonlama ko'maklashishlari kerak, - dedi davlatimiz rahbari.



Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanidek, har bir og'ir bemorni davolash taktikasi bo'yicha yurtimiz va xorijdagi malakali mutaxassislar bilan videoaloqa orqali maslahat berish tizimini muntazam ravishda unimli ishlatish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, bugun qator mamlakatlar sog'liqni saqlash va farmatsevtika tizimlarida koronavirus davosini topish yo'lida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Misol uchun, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Rossiya farmatsevtika kompaniyalari yaqin vaqt ichida vaksina ishlab chiqarishni boshlashi haqida xabar qilinyapti.

Bosh vazir o'rinbosari Behzod Musayevga bir hafta muddatda yetakchi olimlar va tajribali shifokorlar bilan maslahatlashgan holda, vaksinani xarid qilish va mamlakatimiz aholisi vaksinatsiyasini amalga oshirish yo'llarini puxta o'rganib chiqish topshirig'i berildi.

Kasallikning oldini olish, koronavirusga shubha bo'lgan fuqarolarni shifoxonalarga yetkazish, karantin talablarini tushuntirish va bu jarayonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda joylarda mahalla idoralarining ishtirokini keskin kuchaytirish kerakligi uqtirildi.

Chunki xalqimiz turli xil masalalarda birinchi navbatda mahallaga murojaat qilishga o'rgangan.

- Respublika bo'yicha 9 ming 150 ta mahallada qariyb 40 ming odam byudjetdan oylik olib ishlaydi, - deya ta'kidladi davlatimiz rahbari. - Ularning oyliklarini ham joriy yilda qariyb 1,5 barobarga oshirib berdik. Shunday og'ir sharoitda nima uchun ular chetda turishlari kerak? O'z aholisining ahvolidan yaxshi xabardor bo'lgan, qaysi xonadonda qanday bemor borligini, kimning yashash sharoiti qandayligini, kim yordamga, kim vrachga muhtojligini ulardan yaxshi biladigan boshqa odamning o'zi yo'q pastki tizimda.

Buning uchun hokimlar va sektorlar rahbarlari har bir mahallada mahalla raislari, profilaktika inspektori va boshqa xodimlar, mahalla faollari va nuroniylar, mahallalarga birlashtirilgan tibbiyot muassasalari xodimlarini birlashtirib, o'z hududidagi aholi, ayniqsa keksalar holidan kuniga xabar olish, koronavirusga shubha bo'lgan va kasallikka chalinganlarni tez tibbiy yordam xizmati va shifokorlar bilan bog'lashni tashkil etishga bosh-qosh bo'lishlari shartligi tayinlandi.

Shuningdek, ular yordamga muhtoj oilalarga oziq-ovqat, uyda davolanishga tavsiya qilingan bemorlarga dori-darmon yetkazib berish ishlarida faol ishtirok etishlari lozim.

- Bunga qo'shimcha ravishda, ular mahalla hududida aholining zarurat bo'lmasa ko'chaga chiqmasligi va to'planmasligi, tibbiy maska taqib yurishi va ijtimoiy masofani saqlashi, to'y va tadbirlarni vaqtincha o'tkazmasligi kabi majburiy talablarni doimiy tushuntirishi va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari shart va zarur, - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.







**Manba**